

## **TERMINLARNI O'QITISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR**

*Sobirova Komila Kenjaboy qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*3-bosqich talabasi*

*E-mail: [komilasobirova11@gmail.com](mailto:komilasobirova11@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilshunoslikning muhim qatlami hisoblangan termin va terminologiya haqida muhim ma'lumotlar hamda terminlarni maktab o'quvchilariga tez va oson o'qitish bo'yicha turli metodik usullar berilgan. Terminlarni o'qitish orqali o'quvchilarning ilmiy tafakkurini, savodxonlik va mantiqiy nutqini rivojlantirish, tushunchaviy bazasini kengaytirish masalalari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** termin, terminologiya, metodik tavsiyalar, interfaol o'yinlar, konteksda o'qish, metakognitiv strategiyalar, "Kim chaqqon?" viktorinasi

**Annotation:** This article presents essential information about terms and terminology, which are considered a significant layer of linguistics, as well as various methodological approaches for teaching terms to school students in a fast and effective manner. It explores how teaching terminology can enhance students' scientific thinking, literacy, and logical speech, while also expanding their conceptual base.

**Keywords:** term, terminology, methodological recommendations, interactive games, teaching in context, metacognitive strategies, "Who is quick?" quiz.

**Аннотация:** В данной статье представлена важная информация о терминах и терминологии, которые считаются важным слоем лингвистики, а также различные методические подходы к быстрому и эффективному обучению школьников терминам. Раскрываются вопросы развития научного мышления, грамотности и логической речи учащихся через преподавание терминов, а также расширения их понятийной базы.

**Ключевые слова:** термин, терминология, методические

рекомендации, интерактивные игры, обучение в контексте, метакогнитивные стратегии, викторина «Кто быстрее?».

## KIRISH

Zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchilarga fan asoslarini chuqur o'rgatish, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda fan terminologiyasini to'g'ri o'zlashtirish muhim rol o'ynaydi. Terminlar nafaqat ilmiy tushunchalarni aniq ifodalashga xizmat qiladi, balki o'quvchining fanga oid dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Shu sababli, maktab ta'limida terminlarni o'qitish bo'yicha to'g'ri metodik yondashuvni ishlab chiqish zarurdir.

Dunyo tilshunosligida terminlarni tizimlashtirish va lingvistik aspektida tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlar amalga oshirilgan [1].

O'zbek terminologiyasi taraqqiyotining ilmiy-nazariy masalalari va lug'aviy birliklar tahlilida tizimli yondashuv tamoyillari S.Ibrohimov, X.Jamalxonov, S.Usmonov, S.Ashirboyev, A.Madvaliyev, R.Doniyorov, H.Dadaboyev, R.Rasulov, A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Safarova, Sh.Iskandarova, A.Sobirov, I.Ermatov tadqiqotlarida yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida hozirgacha terminologiya masalalariga bag'ishlangan qirqdan ortiq doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi [2], yuzga yaqin terminologik lug'atlar chop etildi [3].

### Asosiy qism

Bugungi kunda ro'y berayotgan ko'pgina o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni tabiiy ravishda, avvalo, o'zbek tili leksikasida o'z aksini topmoqda. Bu esa, ayni damda, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda, yangi-yangi so'z, tushuncha va terminlarni yuzaga keltiradi. Shu bois, o'zbek tili terminlarini o'rganish hamda terminologiyaning nazariy va amaliy masalalarini ilmiy asosda atroflicha tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Terminlarni tadqiq etish, birinchi navbatda, uning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki terminga, garchi so'z

sifatida qaralsa-da, semantik xususiyatlari, uslubiy imkoniyatlariga ko'ra so'zdan farqlanadi. Terminning aniqligi, bir ma'noliligi va ilmiyligi uni umumiste'moldagi so'z va atamalardan farqlab turadi.

Terminlar har bir fanning bilim tizimini tashkil etuvchi asosiy birliklardan biri hisoblanadi. Xususan, ona tili fanida terminlarni to'g'ri o'qitish o'quvchilarining til hodisalarini ilmiy asosda tushunishiga, stilistik va grammatic bilimlarini mustahkamlashga katta yordam beradi. Termin o'zi nima? Termin – bu muayyan fan, soha yoki kasb doirasida ishlatiladigan aniq tushunchani ifodalovchi, bir ma'noli, kontekstga bog'langan so'z. Termin so'zini atama sifatida ham ishlatishimiz mumkin. Atamalarning ikki xili farqlanadi: 1) ilmiy atamalar, 2) kasb-hunarga oid atamalar. Ilmiy atamalar ya'ni terminlar ma'lum bir fan-texnika, madaniyat, san'atga tegishli bo'lsa, kasb-hunarga oid terminlar esa turli kasb-hunar egalarining nutqida qo'llaniladigan so'zlardir.

O'quvchilar ba'zan terminlarni o'zlashtirishda bir necha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan: ayrim terminlar o'zbek tiliga moslashmagan yoki xorijiy tillardan olingan bo'lib, talaffuzi va yozilishi o'quvchilarga qiyinroq. Bundan tashqari, ayrim fanlarda bir-biriga yaqin bo'lgan terminlar o'quvchilarini chalkashishlariga olib kelishi mumkin. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun darslarda terminlarni turli o'qitish va o'rgatish yo'llaridan foydalanish kerak. Quyida shunga oid metodik tavsiyalarni ko'rib chiqamiz.

1.Konteksda o'qitish – bunda terminlar alohida emas, balki kontekstda – matn, topshiriq yoki dars jarayonidagi muhokama orqali o'rgatilishi lozim. Bu terminlarni tezda eslab qolishni va shu vaziyatda anglashni osonlashtiradi.

2.Illustrativ misollardan foydalanish. Har bir yangi termin uchun real hayotiy yoki fan doirasidagi misollar keltirish kerak. Bu usul orqali o'quvchilar so'zlarni chuqurroq anglashi mumkin.

3.Vizual vositalardan foydalanish. Diagramma, grafik, jadval, video yoki rasmlar yordamida terminlarning mazmunini tushuntirish. Bu o'quvchilarining terminlarni tezroq xotirada saqlab qolishiga yordam beradi.

4.So‘z yasalishi va etimologiyasini tushuntirish. Terminlarning kelib chiqishi (yunoncha, arabcha, lotincha) haqida qisqacha ma'lumot berish, bu ularning mazmunini anglashga katta yordam beradi.

5.Darajalab o‘qitish. Har bir o‘quvchining qobiliyati va tayyorlarlik darajasi turlicha bo‘lgani uchun terminlarni o‘qitishda bosqichma-bosqich yondashuvidan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda boshlang‘ich bosqichda oddiy soda terminlar o‘rganiladi. O‘rta bosqichda esa terminlar murakkablashadi va oldingi bosqichdagi so‘zlar mustahkamlanadi. So‘nggi yuqori bosqichda atamalar tahlil qilinadi, solishtiriladi va antonim, sinonim terminlar bilan ishlanadi.

6.Metakognitiv strategiyalar. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini nazorat qilishga va o‘z bilimlarini baholashga o‘rgatish orqali terminlarni chuqurroq o‘zlashtirishlarini o‘rgatish mumkin. Masalan: “Men bu terminni qachon va qayerda qanday ishlatishim mumkin?”, “Bu termin menga nimani anglatadi?”, “Ushbu termin boshqa fanlarda qanday foydalaniladi?” kabi savollar yordamida o‘quvchilar faqat yodlamaydi, balki tahlil qiladi, o‘rganadi va hayotda qo‘llay oladi.

7.Muammoli savollar va darslarda munozara. Termin asosida muammoli vaziyat yaratish o‘quvchini faol fikrlashga, chuqur o‘ylashga, tahlil qilishga va fikrini asoslashga undaydi.

8.Terminlar bilan ishlash uchun interaktiv topshiriqlar. Bunda turli xil interfaol o‘yinlardan foydalaniladi. Masalan:

1) “Terminni top!” o‘yini. Ta’rif orqali terminni topish kerak. O‘yin jamoada yoki yakka tartibda o‘ynaladi. Kartochkalarda ta’rif va terminlar ajratiladi. O‘quvchilar ularni moslashtiradi. Topshiriqni to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar balga ega bo‘lishadi. O‘quvchilar to‘plagan baliga qarab baholanishadi.

2) “Terminlar klasteri” (grafik sxema to‘ldirish). Bunda terminlar o‘rtasi-dagi bog‘liklikni anglash muhimdir. O‘qituvchi doskaning o‘rtasiga misol uchun: “So‘z tuzilishi” degan tushunchani yozadi. O‘quvchilar esa o‘sha so‘zning atrofiga unga bog‘liq terminlarni yozishadi. Masalan: morfema, qo‘sishimcha, yasama, so‘z birikmasi. Keyin to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar tekshiriladi va tahlil qilinadi.

3) “Sehrli quti” o‘yini. Quti ichida terminlar yozilgan kartochkalar bo‘ladi va o‘quvchilar quti ichidan bitta terminni olib, unga ta’rif berishadi, misol keltirishadi va u termin ishtirokida gap tuzishadi. Yaxshi ta’rif berib, unga misol keltira olgan o‘quvchi baland ball oladi.

Bu kabi interfaol o‘yinlar har bir darsda bittadan bo‘lsa, o‘tilgan mavzu tezroq o‘zlashtiriladi. Ular guruhlarda o‘tkazilsa, o‘quvchilarda nutq va tushunish darajasi ortadi, hamkorlikda ishslash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Shu kabi interaktiv metodlardan “Kim chaqqon?” viktorinasini Toshkent shahar Shayxontohur tumanida joylashgan 324-maktabning 10-“A” sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazdik. Bu viktorinada 27 kishi qatnashdi. O‘yin shartlari quyidagicha edi: Avvalo, guruh 3ga bo‘linishi va guruhrigiga nom qo‘yishlari kerak. Undan keyin har guruhdan bitta kishi doskaga chiqadi. Terminlarning ta’rifi o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi. Doskaga chiqqan 3ta o‘quvchi ta’rifga mos bo‘lgan terminni doskaga yozishadi va u ishtirokida gap tuzishadi. Qaysi guruh ishtirokchisining javobi to‘g‘ri bo‘lsa, u joyiga o‘tiradi va guruhning boshqa kishisi ishtirok etadi. Ya’ni javobni to‘g‘ri topgan o‘quvchi guruhidagi sheriklari bilan almashib boraveradi. Qaysi guruhning barcha a’zolari viktorinada birinchi bo‘lib ishtirok etib, tuzgan gaplar mantiqan to‘g‘ri bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib deb topiladi. Darsda bu metodni qo‘llashimiz uchun 15 daqiqa vaqt ketdi. Va bu o‘yinda 3ta “Bilimdonlar”, “Uchqurlar”, “Yengilmaslar” jamoalari ishtirok etishdi. Har bir guruhda 9 tadan o‘quvchi qatnashdi. “Yengilmaslar” jamoasi boshqa guruhlarga qaraganda biroz chaqqonlik va epchillik ko‘rsatib g‘olib bo‘lishdi. Javoblar quyidagi baholash mezoni asosida tekshirildi.

<b>Mezon</b>	<b>Tavsif</b>	<b>Ball</b>
1. Moslik	Aytigan ta’rifga terminning mosligi	5 ball
2. Mantiqiy izchillik	Termin ishtirokidagi gap mantiqiy to‘g‘ri tuzilgанилиги	5 ball

3. Gap strukturasi	Tuzilgan jumla grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishligi	5 ball
4. Tezkorlik	Ta’rifga mos terminni tezroq topishligi	5 ball

### Yakuniy natija

<b>Ball oraliqlari</b>	<b>Baho</b>	<b>O‘quvchilar soni</b>
18-20 ball	A’lo (5)	10
14-17 ball	Yaxshi (4)	9
10-13 ball	Qoniqarli (3)	5
0-9 ball	Qoniqarsiz (2)	3

Bu metod orqali o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishimiz, ularni topqirlikka, e’tiborli va diqqatli bo‘lishga undashimiz, eshitgan narsasini tezroq sintez qilishga o‘rgatishimiz, guruhlikda ishlash orqali bir-birini hurmat qilishini, hamkorlikda ishlashini ta’minlashimiz mumkin.

### Xulosa

Bu kabi metod va usullar juda ko‘p. Biz ularni o‘rni-o‘rnida foydalanimiz, darsning vaqt taqsimotiga ham e’tibor berishimiz kerak. Va eng assosiysi, bu metodlar o‘quvchilarning bilimini rivojlantirishi, fikrlashini o‘sirishi, o‘rganganlarini amaliyatda qo’llay olishiga yordam berishi muhimdir. Terminlarni o‘qitish – bu nafaqat yangi so‘zlarni yodlatish, balki o‘quvchining tushunchaviy tafakkurini shakllantirish, fanlararo muloqotga tayyorlash va ilmiy nutqni rivojlantirish vositasidir. Nazariy asoslar, psixolingvistik va didaktik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodlar pedagogga o‘quvchilar bilan samarali ishslash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Лотте Д.С. Образование и правописание трех элементных научно-технических терминов. – М., 1969; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., 1977; Гринев С.В. Введение в терминологическую лексикографию (учебное пособие). – М., 1986.
2. G'ulomova G.Y. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – T., 2005
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'ME, 2002; Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. – T.: Sharq, 2003. Dadaboyev X. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. – T.:2008
4. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Respublika ta'limi vazirligi. Toshkent-2022
5. Qodirov S. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
6. Turg'unov B. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015